

Course: History of the Eastern and Western philosophy

Lecture 1: Development of humanistic
philosophy in Italy

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

ITALIYADA GUMANIZM FALSAFASINING RIVOJI

Uygʻonish davri falsafasining rivoji.

Renessans davrining oʻziga xos xususiyatlari.

Gumanizm madaniyatining vujudga kelishi va ahamiyati.

Dante Aligʻerining koinot tuzilishi haqidagi qarashlari.

Franchesko Petrarka ijodida antropotsentrik qarashlar.

Lorenzo Vallaning gedonistik individualizmi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Uygʻonish davri, renessans, gumanizm, teotsentrik, antropotsentrik, sekulyarizatsiya.

Darsning maqsadi: Italiyada gumanizm falsafasi boʻyicha atroflicha va chuqur bilimga ega boʻlish; gumanizm davri falsafasi bilan boshqa taʼlimotlarni qiyosiy tahlil qilish; ushbu davr falsafasi boʻyicha talabalarning bilimni kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirish.

Gʻarbiy Yevropada *Uygʻonish davri*, koʻpchilik olimlarning eʼtirof etishicha, oʻrta asrning soʻnggi yilligidan Yangi davrgacha boʻlgan oraliqni, xususan, XIV-XVI asrlarni oʻz ichiga oladi. Bu davrning oʻziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Bu davrda qadimgi yunonlar maʼnaviyati, turmush tarzi, fikrlash usullari qaytadan tiklandi, renessans, yaʼni uygʻonish deyilishining asl sababi ham shunda.
2. Bu davr madaniyati, yuqorida aytilganidek, gumanistik xarakteri bilan ajralib turadi.
3. Bu davr falsafasi antisxolastik yoʻnalishda boʻlgan va antropotsentrik xarakterga ega boʻlgan.
4. Bu davrda tabiat talqiniga Yangicha yondashildi: u inson bilimlarining manbai sifatida oʻrganila boshlandi.

5. Inson tabiati va jamiyat mohiyati to'g'risidagi tasavvurlar o'zgardi.

Uyg'onish davri Yevropada XIV asrning ikkinchi yarmida to XVII asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib, ko'pchilik mamlakatlarda asta-sekinlik bilan eski ishlab chiqarish munosabatlarining o'rniga Yangi ishlab chiqarish munosabatlari vujudga kela boshlagan edi. Bu esa insoniyat tarixida shu davrgacha yuz bergan eng buyuk ilg'or to'ntarishlardan biri edi.

Haqiqatan ham bu davrda hayotning hamma tarmog'ida muhim ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi. Sanoat ishlab chiqarish usulining dastlabki kurtaklari O'rta er dengizi atrofidagi ayrim shaharlarda XIV va XV asrlardayoq yuzaga kelgan. Bu davrda, ayniqsa, Italiya eng taraqqiy etgan davlat bo'lgan. Bu yerda boshqa davlatlarga nisbatan avvalroq savdo-sotiq, hunarmandchilik tez sur'atlar bilan rivojlangan. Shular tufayli Italiyada boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan shaharlar va shahar hayoti tez sur'atlar bilan o'sgan. Italiyada XIV asrlardayoq dastlabki manufakturalar vujudga kelganki, ular hunarmandchilik ishlab chiqarishiga nisbatan oldinga tashlangan katta qadam edi. Savdo, sudxo'rlik, hunarmandchilik manufakturalaridan juda katta foyda kelar edi. Natijada bank egalari, savdogarlar, sanoatchilardan iborat mavqeli tabaqa vujudga keldiki, ular Italiyaning Venetsiya, Genuya, Florensiya shaharlarida feodallar ustidan g'alaba qozonib, siyosiy hokimiyatni qo'lga oldilar. Shuningdek, sanoatning rivoji G'arbiy Yevropada XV—XVI asrlardagi qator geografik va texnik kashfiyotlar bilan ham bog'liq. Amerikaga va Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi, Magellanning butun dunyo bo'ylab sayohati shunga olib keldiki, bir necha asrlar davomida o'zgarmas deb hisoblagan Yer kurrasining chegarasini buzib yubordi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi bu o'zgarishlar, geografik va texnik kashfiyotlar Yevropa xalqining bu davrdagi ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan, bu davrda cherkovning ma'naviy hokimiyati xristian dini negizida vujudga kelgan islohchilik harakatlari ta'sirida ham singdirilgan edi. Bu islohchilik harakatlarida feodalizm quroli bo'lgan rim-

katolik cherkovi ta'siridan qutulishga harakat qilayotgan, tobora mustahkamlanib borayotgan Yangi tabaqalarning intilishlari aks etardi. Cherkov ma'naviy hokimiyatining zaiflanishiga faqat turli islohotchilik harakatlari ta'sir qilibgina qolmay, balki cherkov, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan dunyoviy madaniyat va ma'naviyatlarning keng tarqalishi ham sabab bo'ldi.

Renessans – fransuzcha “*Renaissayce*” – uyg'onish ma'nosini bildiradi. Renessans insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi uyg'onish davri XV asrdan Yevropada boshlanadi [4, 346]. Tabiiyki, ushbu ijtimoiy-tarixiy jarayon Yevropaning turli mamlakatlarida turlicha kechadi. Renessans davri Yevropada uch asosiy bosqichni: ilk bosqichi (XIV asr), yetuklik bosqichi (XV asr), va oxirlab qolgan so'nggi bosqichini (XVI asr) bosib o'tdi.

Renessans o'zining ilk bosqichida butun Yevropani emas, balki uning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab oldi. Renessans davrining ilk bosqichining izlari qadimgi Italiyada XII asrdayoq vujudga kelgan edi. Xuddi shuning uchun ham Renessans o'zining ilk bosqichida sof “italyancha voqea” edi. O'z taraqqiyotining yetuk bosqichiga u butun Yevropaga xos xususiyat kasb etdi.

Bu paytda Yevropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik va savdo-sotiqning tez rivojlanishi boshlandi. Kishilarning shahar tomon intilishlari oshib ketdi. Jamiyat hayotida shaharning o'rni va ahamiyati uzluksiz kuchaydi. Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi. Kishilarning turmush tarzida muhim ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Renessans davri o'ziga xos Yangi madaniyatni yaratdi. Ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm va fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshladi.

Ilk Renessans davrida fanning buyuk qudratli qadriyatlari ulug'landi va yanada boyidi. Oqibatda renessans davrida Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida inqilobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Chunonchi, bu davrga kelib birinchi kitob nashr etildi, Kolumb tomonidan Amerika kashf etildi. Vasko da Gama Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi, Magellan o'zining uzoq davom etgan sayohatiga asoslanib, Er kurrasining sharsimon ekanligini isbotladi, geografiya va geodeziya fan sifatida e'tirof etildi.

Matematikaga oid simvolik belgilar qabul qilindi, ilmiy anatomiya va fiziologiya asoslarini fan sifatida o'rganish boshlandi. Ximiya va astronomiyada yirik yutuqlarga erishildi va h.k.

Renessans davriga kelib xristian dini o'zining mafkuraviy hukmronlik mavqeini yo'qota boshladi, ijtimoiy turmushning barcha sohalarida din va cherkovning zo'ravonlik ta'siri barham topdi. Bunday keskin burilish, faqat fan, falsafa, san'at va adabiyotdagiga emas, balki xristian dinining o'z qobig'ida ham ro'y berdi. Ya'ni Yevropaning bir qator mamlakatlarida sekulyarizatsiya jarayoni boshlandi. *Sekulyarizatsiya* (din, cherkov ta'siridan xoli bo'lish) jarayoni kishilar dunyoqarashida dinning ta'sirini kamaytirib yubordi [4, 346]. Shuningdek, bu jarayon ijtimoiy turmushning boshqa sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Oqibatda kishilarning fikrlash madaniyatida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tabiiy, fikrlash madaniyatidagi bunday keskin o'zgarish o'rta asr teokratizmiga qarshi kurash zaminida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Endilikda kishilarning fikrlash madaniyatida gumanistik qarashlar ustuvorlik qila boshladi.

Gumanizm (lotincha *humanus* - insoniylik) – inson shaxsini borliqning asosiga qo'yib, uni ulug'lashga yo'naltirilgan qarashlar majmuidir [4, 95]. Shu ma'noda gumanizm tushunchasi turli tarixiy davrlar va hududlarda tarqalgan turlicha ta'limotlar va dunyoqarash tizimlariga tatbiqan ishlatiladi.

Gumanizm, birinchidan, Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi muayyan tarixiy bosqich (Uyg'onish davriga xos) falsafiy-amaliy tafakkur tarzi; ikkinchidan, borliqqa munosabat va uni idrok etish tizimidir. XIV-XVI asrlardagi Yevropa Renessansi cherkov aqidalarining inson ruhi ustidan mutlaq hukmronligiga qarshi vujudga kelgan harakat bo'lib, tafakkurda gumanizm shaklida namoyon bo'ldi.

Gumanizm Avgustin rad etgan "insoniy o'lchamlarga binoan yashash"ni himoya qildi. Uni tangri irodasiga zid emas, balki muvofiq deb baholadi. Aksariyat Yevropa olimlari gumanizmning "antropotsentrizm" (borliq mohiyatining asosiga inson irodasini qo'yish) g'oyasiga tayanishni e'tirof etadilar. Gumanizm rivojini tadqiqotchilar turli bosqichlarga ajratadilar:

- ilk gumanizm – XIV asrning 30-90-yillari;
- gumanizmning yuksalishi – XIV asrning birinchi yarmi;
- bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib topishi – XV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning boshlarigacha;
- gumanizm gʻoyalari mazmunidan chekinishlar va gumanizm harakatining soʻnishi – XVI asrning ikkinchi yarmi.

Ilk gumanistlar insonning hayotiy ehtiyojlariga eʼtiborni qaratib, insonni borliq markaziga qoʻydilar. Bu davrda inson haqidagi ilmlarga, ayniqsa, sheʼriyat va axloq ilmiga qiziqish kuchaydi. Qadimgi yunon va rim allomalari yaratgan merosni jiddiy oʻrganish keng tus oldi. Bu davr mutafakkirlari yerdagi moddiy hayot inson uchun berilgan, uni ezgulik va adolatning tabiiy qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solish ham insonning oʻz qoʻlidadir, degan gʻoyani ilgari surdilar.

XV asr ikkinchi yarmidan boshlab gumanistlar bevosita neoplatonizm gʻoyalarining Yangicha talqinini ishlab chiqishga kirishdilar. Neoplatoniklar insonning tangriga boʻlgan munosabatini talqin etishda ibtidoiy tasavvurlarni yengib oʻtib, borliqni yaxlit tizim sifatida tushundilar. Tabiat va ilohiy mohiyatning oʻzaro ichki bogʻliqligiga eʼtibor berdilar. Ular oʻrta asrlarga xos tarkidunyochilik kayfiyatidan yuz oʻgirib, yorugʻ dunyo goʻzalligini ilohiylashtirdilar.

Gumanizm davri ijodkorlari yagona halloqi olamning yaratuvchilik mahoratiga havas qildilar va oʻz faoliyatlarida butun mahorat va salohiyatlarini safarbar etib, ana shu mukammallikka intildilar. Gumanizm mohiyatidagi evrilishlarga ijtimoiy-siyosiy hayotdagi oʻzgarishlar ham taʼsir koʻrsatdi, oxir oqibatda, gumanizm oʻz oʻrnini Yangi qarashlarga boʻshatib bera boshladi.

Tabiiy ijtimoiy muhitda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga insonning intellektual aqliy imkoniyatlari nuqtai nazaridan qarash insonning baxtliligi yoki baxtsizligining sabablarini osmondagi ilohiy moʻjizadan emas, balki u yashayotgan muhitdan izlash tuygʻulari qaror topa boshladi. Kishilarning fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillarning ustuvorlik qilishi, ularning antik madaniy merosga

bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirdi. Bu hol o'z navbatida antik faylasuflarning asarlarini o'rganishga bo'lgan intilishlarini ham kuchaytirdi.

Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel falsafasi qayta tahlil qilina boshlandi. Neoplatonizm, stoiklar falsafasi Epikur va Sitseron qarashlariga qiziqish kuchaydi. Renessans eng avvalo, antik zamonning madaniy va falsafiy merosi haqida erkin fikr yuritish, har qanday qoidalarni o'zgarmas, mutlaq haqiqat deb qarashdan voz kechish inson bisotida mavjud bo'lgan qobiliyat va iste'dodni erkin namoyish qilish uchun vujudga kelgan imkoniyat edi.

Xuddi shuning uchun ham barcha ijod ahli "yopiq maktablar" namoyandalari emas, balki mustaqil tadqiqotchi sifatida harakat qila boshladilar, har bir tadqiqotchining o'ziga xos bayon qilish, voqelikni real tasvirlash uslublari vujudga keldi. Bunday uslublar o'tmish falsafiy adabiyotlarining sxolastik – bachkanalikka asoslangan murakkab bayon qilish uslubiga zid edi, uzoq davrlar mobaynida hukmronlik qilib kelgan diniy-ilohiy mafkuraning tor manfaatlaridan iborat bid'atlarga qarshi kurash usuli edi.

Renessans madaniyatining targ'ibotchilari va tashviqotchilari shahar aholisining yuqori tabaqalari-yirik ishbilarmonlar, meshchanlar yuqori ma'lumotga ega bo'lgan ziyolilar edi. Renessans davri madaniyati insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan va falsafasi insonni eng oliy qadriyat ekanligini har tomonlama isbotlashga urindi.

Xuddi shu davrga kelib ijtimoiy munosabatlarni baholashning Yangi mezoni – insoniylik kriteriysi vujudga keldi. Insoniylik ajdodlar yaratgan madaniy-ma'naviy merosni o'zlashtirish qobiliyati bilan belgilandi, olamni *teotsentrik* tushunishdan *antropotsentrik* tushunishga o'tildi. Bunday inqilobiy o'zgarish, shubhasiz, o'ta murakkab jarayon bo'lib, turli ziddiyatlarga to'la edi.

Xususan, renessans madaniyatini shodu-xurramlik bilan qo'llab-quvvatlovchi shahar aholisining yuqori tabaqalari bilan, uning o'rta va pastki qatlamlari orasida turli siyosiy ziddiyatlar, kelishmovchiliklar mavjud edi. Chunonchi, jamiyatning yuqori tabaqalaridan biri bo'lgan meshchanlar davlat apparatini cherkovni reformatsiya, ya'ni isloh qilish yordamida tovar-pul

munosabatlarini barqarorlashtirmoqchi va uni kengaytirmoqchi bo'lsalar, aholining o'rta va past tabaqasi vakillari jamiyatni yana o'rta asr tartibotlariga rioya qilishga da'vat etardilar.

Xuddi shuning uchun ham renessans Yevropaning turli mamlakatlarida turlicha shakllarda namoyon bo'ldi. Bunday turli-tumanliklar oqibati o'laroq, renessans madaniyati, falsafasi bilan reformatsiya, ya'ni isloh qilish orasidagi o'zaro aloqadorlik mexnaizmini baholashda, evropalik mutaxassislar orasida xilma-xil fikr-mulohazalar uchrab turadi. Natijada renessans xalqaro, ya'ni umumyevropa ahamiyatiga molik voqea, reformatsiya, ya'ni isloh qilish esa bu faqat milliy (nemislarga xos) voqea deb ishontirmoqchi bo'lgan qarashlar ham paydo bo'ladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, renessans va reformatsiya haqida bahs-munozara yurituvchilarning barchasi bu yirik voqea orasida umumiylik, o'xshash tomonlari mavjudligini e'tirof etadilar. Bunday umumiylik odamlar turmush tarzida ildiz ota boshlagan Yangicha madaniyatning shakllana boshlaganligi bilan izohlanadi.

Renessans davri insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lining eng muhim davrlaridan biridir. Bu davr jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Renessans davrida gumanistik g'oyalarni ulug'lagan Dante Alig'eri (1265-1321 yillar), paduyalik Marsiliy (1278-1348 yillar), Franchesko Petrarko (1304-1374 yillar), Djovanni Bokachcho (1313-1375 yillar), Georgios Gomistes (1360-1425 yillar), Marsilio Fichino (1422-1495 yillar), Piko della Mirandola (1463-1495 yillar) kabi buyuk zotlarning katta bir sulolasi yetishib chiqdi. Ilm-fanga e'tibor kuchaydi, amaliyot bilan fan orasidagi chegara ham o'zgara boshladi.

Injener va rassom nafaqat o'rta asr zamonasidek "san'atkor", "texnik", balki chinakam ijodkor yaratuvchi darajasiga ko'tarildi. Kepler, Galiley, Kovaleri singari ijodkorlar Xudo tomonidan sodir etilgan tabiiy hodisalarni ichki tuzilishidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini bilishga intilganlarini ularning ijodida uchratamiz. Inson to'g'risidagi qarashlar renessans davrida yanada yuksaklikka ko'tarila boshladi. Insonning qadr-qiymati har tomonlama osha boshladi. O'rta

asrlarda mavjud bo'lgan – Xudo orasidagi ittifoq haqidagi qarashlarga darz ketdi. Inson Xudodan ajralib, mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ldi endi u falakiyotdan emas, balki o'zidan najot izlay boshladi. O'zining teranlashib borayotgan tanasining imkoniyatlaridan madad qidirishga tushdi. Xuddi shu bois renessans davri antropotsentrizmida go'zallikni ulug'lash tamoyili ustuvor mavqega ko'tarildi. Tasvirlarda insonning go'zalligini, ayniqsa, uning qiyofasidagi latofatni tasvirlash o'sha davr san'atining bosh mavzusiga aylandi. Bunday holatni renessans davrining mashhur musavvirlari – Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael asarlarida ko'rish mumkin.

Dante Alig'eri (1265-1321 yillar) o'rta asrlarning so'nggi, Yangi davrning birinchi shoiri sifatidagi ulkan siymosidir [1, 172]. Dante Florensiyada tug'ilib, Ravennada vafot etgan. Uning dastlabki “Yangi hayot” nomli avtobiografik asari (1292) sonetlar, kansonalar va nasriy lavhalardan iborat. Dante feodal mustabid respublika tarafdorlari – gibellinlarga qarshi kurashdagi ishtiroki uchun o'z shahridan umrbod badarg'a qilinadi (1302). Mutafakkir falsafiy ruhdagi “Bazm” (1308), “Monarxiya haqida” (1313), “Yer va suv haqida” (1320) risolalarida gumanistik qarashlarni ilgari suradi, davrning muhim ijtimoiy-axloqiy muammolariga javob izlaydi.

Shoir darbadarlikda ko'rgan-kechirganlarini, olam, hayot haqidagi o'y-tashvishlarini, ilmiy-falsafiy va estetik qarashlarini shoh asari – “Ilohiy komediya” (1307-1321 yillar)da zo'r iste'dod bilan aks ettiradi. Keyinchalik asar “Dantenoma” deb ham yuritilgan. Shoir vafotidan so'ng qo'shilgan “Ilohiy” so'zi asarning diniy xarakterda ekanligi uchun emas, badiiy jihatdan yuksakligini ifodalash uchun qo'llanilgan. Asar “Do'zax”, “Arosat”, “Jannat” deb ataluvchi 3 qismdan iborat bo'lib, Dantening buyuk klassik shoir Vergiliy yetakchiligida “u dunyoga sayohat” tarzida yozilgan.

Bu shakl qadimiy sharq obidasi “Merojnoma” syujetini eslatadi:

O, nasroniy, mag'rur qalbli,
Baxtiqaro, xira shuurli,
Sizni chorlar chigal manzil!

Siz bexabar, chuvalchangmiz biz [5, 307-308].

... Tandan mahrum parvona kabi,

Zimistondan oshiqar, tangri hukmiga, ... [5, 200] (tarj. – G.R.)

Shoir o'sha davr jamiyatining ko'p illatlarini, xususan, inson tafakkurini kishanlovchi cherkov aqidalarini keskin qoralaydi. "Komediya" an'anaviy diniy syujet asosida bo'lsa-da, undagi gumanizm mag'zini real dunyodagi insonlar hayoti tashkil etadi. U shunday kuylaydi:

O, birodarlar! – shomda qildim - murojaat

Og'ir yo'lni bosib o'tganlar!

Bedorliqda o'tgan lahzalar.

Zaminiy his – qoldig'i sayoz.

Yangilikka ochiling mudom,

Quyoshdan so'ng ko'ring dunyoni!

O'ylang, kimning o'g'lonlarisiz!

Hayvon zotidan yaralmagansiz,

Ezgu, ilm uchun bunyod bo'lgansiz! [5, 119] (tarj.– G.R.)

Dante asarda insoniyat tarixining turli davrlarida yashagan kishilarning murakkab falsafiy qarashlariga munosabatini bildiradi. Komediyaning "Do'zax" qismidagi IV qo'shiqda jahonning buyuk donishmand olim va fozillari Demokrit, Fales, Geraklit, Evklid, Ptolemey, Gippokratlar qatorida Sharqning ulug' mutafakkirlari Ibn Sino va Ibn Rushdlarni ko'ramiz. Qo'shiqda qadimiy Turon podshosining qizi, afsonaviy baliq tanli sarkarda ayol Semiramida, Misr malikasi Kleopatra faoliyatiga munosabat bildiriladi. "Do'zax"ning XXVIII qo'shig'ida esa Muhammad payg'ambar va uning kuyovi hazrat Ali Yangi islom dini yaratib

xristianlar orasiga nifoq soluvchilar deb talqin qilinadi. “Arosat”da massagetlar malikasi To‘maris gavdalanadi.

Dantening “Ilohiy komediya”sida do‘zax va arosat olamlarida ham inson jonlari xuddi yerga o‘xshab xilma-xil kechinmalarni boshidan o‘tkazadi. Jonlar u dunyoda ham tinib tinchimaydilar. Yerdagi qilgan barcha ishlari u dunyoda ularni ta‘qib etadi. Dantening bu fikri inson hayotining mohiyati ikkilamchi ekanini bildiradi. Bir tomondan inson o‘lmas abadiy jonga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning moddiy hayoti va tanasi o‘tkinchidir. Bu foniy dunyoda inson ijtimoiy harakatlar va siyosiy hayotdan o‘zini chetlashtirmasligi kerak. Shundan kelib chiqqan holatda Dante o‘zining siyosiy-ijtimoiy fikrlarini shakllantiradi. Uning fikricha, jamiyatni eng oqilona tuzumi cheklangan ziyoli monarxiya. Davlatning siyosiy tuzumi diniy ta’sirdan istisno bo‘lmog‘i kerak. Monarx esa papaning hukmronligiga bo‘ysunmasligi kerak. Dante katolik cherkovining ko‘pgina odatlarini tanqid qildi. Ayniqsa, katolik cherkovini moddiy boylikka qiziqishini va xilma-xil boyliklarga ega ekanligini noto‘g‘ri deb hisobladi.

Dante ijodi o‘z davrining falsafasi, ilohiyoti va fani bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Uning she‘riy ijodida Uyg‘onish davridagi tug‘ilib kelayotgan dunyoqarashning kurtaklari mavjud. Dante xristian dini aqidalarini o‘zgarmas haqiqat deb tan oladi. Lekin u ilohiy va insoniy munosabatlarni Yangicha talqin qiladi. U bularning har ikkisini ham bir-biriga zid qo‘ymaydi, balki ularni o‘zaro birlikda deb biladi. Uningcha, xudoni insonning ijodiy kuchiga qarshi qo‘ymaslik kerak. Inson ikki tomonlama: birinchidan, xudo tomondan, ikkinchidan, tabiat bilan sababiy shartlangan. Shunday qilib, insonni rohat-farog‘atga ikki yo‘l olib boradi: falsafiy “ta’lim” yoki inson tafakkuri va muqaddas ruhdan kelib chiquvchi “ma’naviy ta’lim”. Insonda ilohiylikning mavjudligini tan olish, o‘rta asr an’analaridan og‘ish hisoblangan. Shuning uchun Dante Foma Akvinskiy tarafdorlari tomonidan tanqid qilingan. Dante gumanizmi tarkidunyochilik (asketizm)ga qarshi qaratilgan, inson kuchiga to‘liq ishonch bilan

sugʻorilgan. Uningcha, inson oʻz farovonligi uchun oʻzi masʻul. Bunday hal qiluvchi omil boylik yoki meros qolgan nufuz emas, balki shaxsiy sifatlardir.

Dantega lotin averroizmi taʻsir qilgan. U Siger Brabantskiy taʻlimoti bilan tanish boʻlgan, maʼlum darajada Psevdo Dionisiy, Areopaget talqinidagi oʻrta asr neoplatonizmining taʻsiri ham boʻlgan. Averroesning faol aql va uning imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish, uni amaliy faoliyatda qoʻllashdir.

U oʻzining “Monarxiya” asarida cherkovga qarshi qaratilgan siyosiy nuqtai nazarini ishlab chiqadi. Uningcha, cherkov faqat “mangulik”ka xos, yaʼni “narigi dunyo” masalalari bilan shugʻullanishi kerak, dunyoviy masalalar esa odamlarning tashvishidir [3, 8]. Odamlarning bu sohadagi faoliyati baxtga, farovonlikka, mustahkam tinchlikka asoslangan ijtimoiy tuzumni qurishdir. Dante oʻz gumanizmini ikki haqiqat haqidagi nazariya bilan uzviy bogʻlagan mutafakkirlardan biri edi. Dante taʻlimotida sodda va sxolastik dalillar koʻp uchraydi, lekin undagi eng muhim gʻoya – har bir insonga xos narsa, siyosat inson tafakkuriga boʻysunishi kerak.

Dante insonning ruhiy erkinligini koʻklarga koʻtarib maqtadi. Aynan mana shu ruhiy erkinlik inson hayotini xilma-xil voqealarga boy boʻlishiga sababdir. Inson oʻz hayotida jamiki qilgan harakatlari uchun yaratuvchi oldida oʻzi javobgardir. Ruhiy erkinlik insonga xudo tomonidan berilgan va xudoning bu tuhfasini insonni barcha jonzotlardan yuqori qoʻyadi, uning ongini kengayishiga, oʻsishiga sabab boʻladi. Ruhiy erkinlik insondagi barcha qobiliyatlarni ham yuzaga keltiradi.

Qadimgi yunon afsonalaridagi Uilis, yaʼni Odissey siymosi orqali Dante insondagi barcha ijodkor fazilatlarini maqtaydi va oʻz davrining oddiy fuqarolarini siyosiy hayotda faol qatnashishga daʼvat etadi. Shu bilan Dante Yangi gumanistik antropologiyaga yoʻl ochib beradi.

Paduyalik Marsiliy (1278—1348 yillar) Italiyada shakllangan gumanistik oqim vakillaridan biri. U «Dunyo himoyachisi», degan risolasida oʻz siyosiy qarashlarini, respublikachilik gʻoyalarini bayon etadi.

Marsiliy ta'kidlaydiki, cherkov ham, davlat ham ilohiy tabiatga ega emas. Ularning har ikkalasi ham insoniy hokimiyatning turli shakllari va ijtimoiy tashkilotlarning ko'rinishlaridir. U ham Dante kabi inson baxtining ikki asosiy omilini ta'kidlaydi; tinchlik va monarx hokimiyatida hal qiluvchi o'rinni xalq egallaydi. Fuqarolar qonun chiqaruvchi hokimiyatga ega. Ular o'z irodalarini ovoz berish yo'li bilan majlislarda ifodalashlari mumkin. Xalq har qanday hokimiyatning manbaidir, degan g'oya Marsiliy ta'limotini o'rta asr sxolastik ta'limotlardan farqlantiradi va keyinroq vujudga kelgan ijtimoiy shartnoma haqidagi ta'limotga yaqinlashtiradi.

Franchesko Petrarka (1304-1379 yillar) “birinchi gumanist”, “gumanizmning otasi”, degan nomlar bilan mashhur bo'lgan. Aretsso shahrida 20 iyul notarius oilasida tug'ilgan, 19 iyulda Paduya yaqinidagi Arkua shaharchasida vafot etgan. Monpel, Bolonya universitetlarida huquqshunoslikdan ta'lim olgan. Antik madaniyatining yirik targ'ibotchisi sifatida juda ko'p lotin matnlarini yig'gan. Uning mumtoz lotin tilidagi matnlar to'plami o'z davrida yagona edi. Inson shaxsi va uning erk sari intilishi Petrarka ijodining asosini tashkil etadi. Uning falsafiy, siyosiy va estetik qarashlari “Hayotdan bezish” (1342-1343 yillar), “Yolg'izlikdagi hayot” (1346-1366 yillar), “Taqdirga bardosh berish vositalari” (1358-1366 yillar), “O'zim va boshqalarning johilligi haqida” (1367-1370 yillar), “Avlodlarga maktub” (1374) kabi risolalarida o'z ifodasini topgan.

O'tmish lotin shoirlarining qo'l yozmalarini yig'ib, ularni sharhladi. Ba'zi badiiy asarlari (“Afrika”, 1339-1342 yillar; “Bukoliklar”, 1346-1357 yillar va boshqalar)ni lotin tilida yozgan, lekin italyan tilida yaratilgan ishqiy lirikasi, vatanparvarlik ruhidagi siyosiy she'rlari (“Mening Italiyam”, “Olijanob ruh” va boshqalar) shoir nomini jahonga tanitdi.

U antik madaniyat va ma'rifatga tarixiy yondashadi. Ularni qandaydir o'tib ketgan oltin asr va yo'qotilgan jannat deb hisoblaydi. U antik davr merosini o'z zamondoshlariga aniq va tushunarli holda yetkazishga harakat qiladi. Rimni u Yunonistondan yuqori qo'yadi. Rim umuman sivilizatsiyaning

mumtoz namunasi ekanligiga shubha bildirmaydi. Shuningdek, u oʻrta asr anʼanalari, xususan, Avgustin bilan ham qiziqadi.

F.Petrarka italyan gumanizmining eng buyuk vakillaridan biri. U oʻzining “Sonetlar” kitobida madonna Lauraga bagʻishlangan qoʻshiqlar bilan bir qatorda oʻz davrining siyosiy va ijtimoiy hayotiga tegishli boʻlgan koʻpgina sheʼrlar yozdi. Petrarka antik davrdagi madaniy merosni italyan jamiyati uchun qaytadan ochdi va uni oddiy italyan xalqining tiliga tarjima qilib keng omma oʻrtasida tarqatdi. Shoirning Lauraga bagʻishlangan asarlari “Madonna Lauraning hayotiga” va “Madonna Lauraning vafotiga” qismlarga boʻlinib, 317 sonet, 29 kansona, 9 sekstin, 7 ballada va 4 madrigal (madhiya)dan tashkil topgan. U Lauraga bagʻishlab “Zafar tantanasi” (1354) allegorik dostonini yaratdi.

Petrarka Yevropa poeziyasi tarixida birinchi boʻlib lirikani xristian mistikasi, simbolika va allegorizm taʼsiridan chiqardi va dunyoviy ishqni kuyladi. Uning qator lirik sheʼrlari oʻzbek tiliga oʻgirilgan. U yunon va rim madaniyatini nihoyatda chuqur va har taraflama bilgan nodir mutaxassislardan biri edi. Antik madaniyatga xos boʻlgan dunyoviy hayotdan lazzatlanish gʻoyasini Petrarka oʻz davrining ommasiga ham singdirishga harakat qildi. Franchesko Petrarka Florensiyalik notariusning oʻgʻli boʻlgan. U otasining oʻlimidan soʻng Parij universitetidagi oʻqishini toʻxtatdi va Rimga qaytib keladi. Bu shahar Petrarka uchun Yevropaning mashhur universitetlari joylashgan koʻpgina shaharlardan koʻra afzal edi. Antik madaniyatning markazi boʻlgan qadimgi Rim Petrarkaning hayotida ham nihoyatda muhim rol oʻynadi.

Petrarkaning ijodi boshlangan XIV asrning oʻrtalarida oʻrta asr sxolastikasining mashhur vakili avliyo Foma Akvinskiy falsafasi koʻpgina Yevropa universitetlarida rasmiy taʼlimot sifatida oʻtilar edi. Oʻsha davrning sxolastik universitetlari Akvinskiy taʼlimotini dastur sifatida qabul qilishgan edi.

Petrarka oʻz zamonasining sxolastik fanini tanqid ostiga oladi. Agar oʻtmishda donishmandlarning soni hisobli boʻlsa, deydi Petrarka, hozirgi davrda

ularning soni mollarning to'dasi kabi ko'payib ketgan. Kallasida hech qanday bilim bo'lmagan yosh yigitchalar kafedraga chiqishgandan keyin o'zining tushunib bo'lmaydigan ilmiy ishlarini o'qib berishadi. Xudoni olamiy jon sifatida ko'rish va uni tabiatda tajalli etishini anglash olamiy jon bilan inson joni o'rtasidagi aloqa va bularning barchasining asosida yotgan muhabbat his tuyg'usi va ayniqsa ruhiy muhabbat tuyg'usi tashkil etadi. Bu masalalarning barchasi o'rta asrning ratsional falsafasi doirasidan chetga chiqib ketadi va Yangi gumanizm davriga xos bo'lgan irratsional dunyoqarashni yuzaga keltiradi.

Petrarka davrida antik madaniy merosini o'rganishda matnlarni tahlil qilish keng tarqalgan edi. Bu tahlilda matn muallifi nufuz darajasiga ko'tarilar edi va uning fikri tanqid qilinmas edi. Petrarka matnlarni tahlil qilish orqali ulardan farq qiluvchi Yangi, falsafiy konsepsiyani yaratish vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Bunday tahlil ijodiy falsafiy tahlil hisoblanadi va u Yangi g'oyalarni yaratishga olib keladi.

O'rta asr falsafasining markazida teotsentrizm dunyoqarashi yotar edi. Petrarka falsafasining markazida inson masalasi yotadi. Teotsentrik qarashga binoan inson gunohkor banda, u o'zining nafs va hirslariga berilgan. Petrarkaning ijodida insonning go'zal ichki tabiati kuylanadi, inson o'z nafsidan voz kecholmaydi, lekin ularni nazorat qilish kerak, insonning barcha istaklari me'yorda bo'lishi kerak. Shunday qilib, Petrarka ijodi antropotsentrik xarakterga ega. Petrarkaning mashhur asari "Mening sirim" asarida Fransisk va Avgustin nomli qahramonlar o'rtasida bahs munozara ketadi. Bu asardagi Avgustin patristikaning dong taratgan vakili avliyo Avgustindir. Avgustin Fransiskni shuhratparastlik, moddiylikka berilishda, yer muhabbatini birinchi o'ringa qo'yishda ayblaydi.

Insonning bu hislatlari ruhiyat olami oldida o'tkinchi narsalardir. Avgustin Fransiskni yuksak ruhiy g'oyalarga da'vat etadi. Petrarka bu asarida moddiy va ruhiy hayotni birlashtirishga harakat qildi. Avgustin moddiylikni inkor etmaydi, u darveshlik, tarkidunyochilikka da'vat etmaydi. Avgustin fikricha, Fransiskda ichki ziddiyatlar juda ko'p, bu ziddiyatlardan qanday chiqib ketishni Petrarkaning o'zi ham bilmaydi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Italiyada paydo bo'lgan Yangi oqim gumanizm deb atalar edi. Gumanizm falsafasining asoschilari sxolastik falsafaga qarshi kurashgan olimlar shoirlar, san'atkorlar, ilmiy arboblardan bo'lgan. Ular, gumanistik falsafani, Yangi dunyoqarashni asoslaydi, sxolastikada ishlatiladigan lotin tilining o'rniga, italyan tilini kiritadilar va o'z fikrlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etadilar.

Florensiya respublikasining mashhur fuqarolaridan biri **Kolyuchcho Solyutati (1331-1406 yillar)** o'zini Petrarkaning shogirdi deb hisoblagan. U Florensiyada gumanistlar maktabiga asos soldi. Petrarkani sxolastik faylasuflaridan naqadar katta farq qilishini o'z asarlarida tushuntirib beradi.

Gumanizm falsafasi o'z ijodini Aristotel va Platon asarlarini qaytadan tarjima qilishdan boshladi. O'rta asr sxolastikasi tomonidan qilingan tarjimalar nihoyatda qo'pol. Lug'aviy ma'noda kambag'al va bir taraflama tarjimalar edi. Bu tarjimalarning asosiy maqsadi Aristotelni sxolastikaning tarafdori qilib ko'rsatish edi. Gumanizm vakillarining tarjimalari esa, Aristotel, Platon, Suqrot, Seneka, Sitseron kabi faylasuflarning asarlarini asl ma'nosini ochib berishga intilar edi.

Gumanistlar antik davr merosini sxolastikaga nisbatan chuqurroq va har taraflama o'rganib chiqdi. Ular Aristotel va Platon asarlari bilan chegaralanib qolmasdan Anaksagor, Demokrit, Epikur, Sitseron, Platon kabi mashhur yunon va rim faylasuflarining asarlarini chuqur o'rganib, tarjima qildi. Gumanistlar antik davr falsafasining xilma-xil oqimlarini chuqur tahlil qilishga kirishdi. Bu tahlil nufuzlarga tayanishga asoslanmas edi. Aksincha, har bir antik falsafiy maktabda o'ziga xos bo'lgan fikrlar tizimini o'rganishga va mualliflar nima demoqchi bo'lganliklarini tushunishga harakat qildi.

Gumanistlar fikricha, har bir falsafiy maktab falsafa osmonida betakror bir yulduzdir va unga xos bo'lgan go'zallik va tarovat boshqa yulduzlarnikidan farq qiladi. Bu yulduzlar qanchalar ko'p bo'lsa, falsafiy fikr shunchalar boy va betakrordir. Har bir davrning o'ziga xosligi undagi falsafiy oqimlarning xilma-xilligida ham aks ettiriladi. Ularning barchasi cheksiz haqiqatning ayrim qirralaridir.

Gumanistlar o‘z asarlarini ko‘pincha dialog sifatida yozar edi. Dialogda qatnashuvchi ikki qahramon savollar orqali bir-birini fikrini tushunishga harakat qiladi va bu dialog orqali ular o‘z dunyoqarashini shakllantiradi.

Gumanistlar davriga eng mos tushadigan oqimlardan biri Epikur falsafasi edi. Bu falsafa yer olamini zavq va shavq bilan ifoda etadi va insonning qalbida quvonch his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Epikur bu dunyoni zavq bilan qabul qilishni o‘rgatar va yer muhabbatini olqishlar edi. Epikur hatto xudolar ham atomlardan iborat deb, Demokritning falsafiy sistemasini kengaytirdi. Unga atomlarning erkin harakat qilish g‘oyasini kiritdi. Epikurga hurfikrlik xos bo‘lgan. Bu esa gumanizm falsafasi vakillariga ham ma‘qul kelar edi.

XV asrining eng yirik gumanistlaridan biri **Lorenzo Valla (1407-1457 yillar)** edi. U yirik filolog, qiyosiy tekshirish usulining asoschilaridan biri bo‘lgan. Lorenzo o‘zining bu usulini Tit Liviy risolalariga, hatto, Injilga ham tatbiq qilgan. U sxolastik mantiqni inkor qilib, unga qarama-qarshi Sitseron rigorizmini qo‘yadi. Uningcha, bu rigorizm insonga Yangicha fikrlash va bahs yuritish uchun yordam beradi. Lorenzo tomonidan “Konstantin sovg‘asi” deb atalgan hujjatning haqiqiy emasligini isbot qilinishi katta shov-shuvga sabab bo‘ladi. Ma‘lumki, bu hujjat papa dunyoviy hokimiyatining huquqiy asosi, deb hisoblanardi. Lorenzo Valla filologik, huquqiy, tarixiy dalillar asosida bu hujjat haqiqiy emasligini isbotlaydi. Axloq-odob masalalarida Lorenzo Valla epikurchilikka moyil bo‘lib, stoitsizmni inkor qiladi. U insonning tabiiy mohiyatini tan oladi. Uningcha, insondagi o‘z-o‘zini saqlash hissining muhim hayotiy tomoni - olijanoblikdir. Shuning uchun har qanday lazzat ham axloqsizlik emas. Lorenzo Vallaning axloqiy ta‘limoti individualistik (alohida inson manfaatidan kelib chiquvchi) xaraktyerdadir. Yana shu narsa muhimki, epikurchilikning qayta tiklanishi va Yangilanishi davrning falsafiy tafakkuriga unutilgan antik davr atomizmining kirib kelishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘rta asr sxolastik falsafasida insonning moddiy ehtiyojlari e‘tiborsiz qolib ketar edi. Inson yer hayotidan mamnun bo‘lmas, uning fikri-zikri xudoda va u dunyodagi hayotda bo‘lishi kerak edi. Bunday dunyoqarash italyan

gumanistlarining antropologik fikrlariga zid kelar edi. Ularning fikricha, insonning g'ururi, uning yovvoyi, ibtidoiy holatidan, madaniy holatiga o'tishidadir. Bu madaniy holatda insonning tafakkuri boshqa mavjudotlarnikiga nisbatan tez rivojlanadi, natijada madaniyat va sivilizatsiya yuzaga keladi. Undan tashqari inson g'ururi, uning koinotdagi egallagan o'rni bilan ham belgilanadi. U mikrokosmosdir, ya'ni o'z ichiga butun koinotni jamlab olgan mavjudotdir. U shunday borliqki, koinotdagi barcha narsalar insonning ichki olamida mavjuddir va eng asosiysi bu insonning tafakkuridir. Inson tafakkuri uni boshqa barcha mavjudotlardan ajratib turadi. Sivilizatsiya va madaniyat yaratilishi inson tafakkurining rivojlanish natijasida sodir bo'ladi. U o'zining tafakkuri orqali tabiatni o'zgartirib boradi va o'zining barcha qobiliyatlarini aktiv faoliyat orqali yuzaga chiqaradi. Inson yaratuvchilik qobiliyatiga ega va bu qobiliyati uning amaliyotida sodir bo'ladi.

Shuning uchun inson ilohiylik darajasiga ko'tarila boshlaydi. Faol hayot tushunchasini italiyan gumanistlari antropotsentrizm ta'limotining markaziga qo'yadi va faoliyatsiz inson o'z hayotida hech narsaga erisha olmaydi, deb hisoblaydilar. Inson g'ururi degan tushuncha yuqoridagi fikrlardan iborat edi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Renessans nima?
2. Antropotsentrizmga ta'rif bering.
3. Gumanizm nimani ilgari suradi?

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Ғарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011. -425 б.
3. Қобулниёзова Г. Уйғониш ва Янги давр Ғарб фалсафаси анъаналари. Ўқув қўлланма. Қўлёзма ҳуқуқида. –Тошкент, 2013.

4. Фалсафа. Қомусий луғат /Қ.Назаров таҳрири остида. –Тошкент: ЎФМЖ, 2005.

5. Данте Алигъери. Божественная комедия. –М.: Мысль, 1967.